

EPOS TADQIQOTCHILIGI: MILLIY FOLKLOR VA XALQARO MADANIY
QARASHLAR UYG'UNLIGI

Karimova Maxsuda Yusupboyevna

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi

Urganch shahar 1-son maktab-internatining

oliy toifali ona tili va adabiyoti fani

o'qituvchisi, Urganch davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

+99 897 510 15 56

Annotatsiya: Folklor — bu har bir xalq madaniyati va adabiyotining boshlangich «alifbo»si ekanligi, u ana shularning shakllanishi, ravnaq topishida hal qiluvchi rol o'ynagan.

Maqolada o'zbek folklorshunosligi, xususan, Xorazm folklorshunoslik maktabining yaratilishi, taraqqiyotida folklorshunos olim, professor Safarboy Ro'zimboyevning ilmiy tadqiqotlari, soha rivojiga qo'shgan hissasi haqida fikr yuritiladi. Folklor namunalari noyob nomoddiy madaniy meros sifatida asrash lozimligini bayon qilgan.

Professor S. Ro'zimboyevning ilmiy maqolalari tahlil qilinib, xalq baxshilari va folklor namunalari millatlarni birodarlikka undovchi ma'naviy qudrat ekanligi ko'rsatilgan

Kalit so'zlar: o'zbek folklorshunosligi, Xorazm folklorshunoslik maktabining yaratilishi, professor Safarboy Ro'zimboyevning ilmiy tadqiqotlari, O'zbek xalq og'zaki ijodi, nomoddiy madaniy meros, xalq baxshilari

Annotation: The article will discuss the scholarship of Uzbek folklore, especially the establishment of Uzbek folklore studies, Professor Safarboy Ruzimbaev's contribution to the development of the industry. Anti-Uzbek folklore and written literature, the author of the article explained to be observed and should be protected as a unique intangible cultural heritage of folklore.

Professor S. Ruzimbaev's scientific articles were analyzed and people's Bakhshov and folk scores show that the nations are spiritually motivated spiritual power to brother.

Ключевые слова: Первая фольклорная экспедиция учёного, поэма "Gurugli", Хорезмские дастаны, цикл "Ошикнома" (" Поэма о влюбленных") , научные исследования проф.С.Рuzимбаева.

Аннотация: В статье будет обсуждаться стипендия узбекского фольклора, особенно создание Узбекского фольклора, вклад

профессора Сафарбоя Рузимбаева в развитие отрасли. Автор статьи, объясненного наблюдением, и должен быть защищен как уникальное нематериальное культурное наследие фольклора.

Научные статьи профессора С. Рузимбаева были проанализированы, и народные баллы и народные оценки показывают, что народы духовно мотивированы духовной силой брата.

Annotatsiya: Ushbu maqolada eposlarning ta'lim-tarbiya rivoji uchun muhim ahamiyatga egaligi haqida fikr yuritilgan. Xususan, o'zbek xalq eposlarining milliy tarbiyadagi o'rni va jahon folklorshunosligidagi muhim o'rni masalalari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: "Oshiqnoma", "Go'ro'g'li " eposlari, xalq baxshilari, urf-odat va an'analar axloqiy- ma'naviy tarbiya, xalfalar, Xorazm folklori,

Folklor — bu har bir xalq madaniyati va adabiyotining boshlangich «alifbo»si bo'lib, u ana shularning shakllanishi, ravnaq topishida hal qiluvchi rol o'ynagan. Ularning tarkibiga uzviy ravishda singib, badiiy jozibadorligini oshirish bilan birga, xalqlarning madaniy hayotida ham muhim o'rin tutadi. Binobarin, uni chuqur va atroflicha o'rganmay turib, u yoki bu xalqning milliy madaniyati, adabiyoti ijtimoiy borlivda bulgan munosabati haqida ham turli tasavvurga ega bo'lish amri maholdir.

Xorazm folklori namunalari dostonlarni kitobat qilish, ularni qissaxonlar va xalfalar tomonidan erkaklar hamda ayollar davralarida ayrim-ayrim holda o'qib eshittirish qadimdan mavjud bo'lib, uning ildizlari muqaddas "Avesto"ga borib taqaladi. Folklor namunalari ommaviy ijod mahsuli bo'lsa-da asrlar osha yozuv madaniyati, kitobat san'atining vujudga kelishi natijasida folklor asarlari qo'lyozmalari ommaviy ijod mahsuli sifatida qog'ozlarga ko'chirila boshlangan. Bunday xalqona ijod– el adabiyoti yoki boshqacha aytganda, xalq donishmandligi durdonalari ustoz-shogirdlik an'analari natijasida hamda folklor janrlarining yaratilishi, o'ziga xosliklari tufayli qo'lyozma nusxalari yaratilgan bo'lsa ham folklorning janriy tamoyillarga moneliklar bo'lmagan. Aksincha, bunday qo'lyozmalar har bir folklor ijrochisi repertuari xazinasini boyishini ta'min qilgan. Folklor asarlaridagi an'anaviylikning buzilmasligini ta'min etib, marosim folkloridagi milliy qadr-qimmatga ega turli ijobiy, millatimizning tarbiya va ma'naviyat hamda madaniyatga erishuvi uchun tgzamin vazifasini o'tagan. Ana shunday qo'lyozmalarni izlab toppish, fanga ma'lum qilish, uning ko'chiruvchisi va ijrochilari haqidagi ma'lumotlarni xalqqa yetkazish folklor asarlarining yaratilishi, genezisi ijro uslublari hamda ijrochilarning mahoratlarining o'rganilishi, baholanishi folkloristikada uzviylik zanjirini

mustahkamlaydi. Bu sohada izlanishlar qilgan tadqiqotchining mehnatlari qay darajada muhimligini ko'rsatadi.

Urganch davlat universitetining jonkuyar olimi, professor Safarboy Ro'zimboyev o'zining ko'p yillik samarali izlanishlari bilan milliy folklorimiz rivojiga salmoqli hissa qo'shgan. Universitet filolog olimlari bilan birgalikda Xorazm vohasining ko'plab qissaxonlar va xalfalar bisotidagi qo'lyozma, toshbosma kitoblarni topib, ularni hozirgi joriy alifboga o'tkazib, juda xayrli ishlarni amalga oshirganlar.

Asrlar osha madaniyatimiz ravnaqi yo'lida ijobiy hissa qo'shgan tengsiz ma'naviy merosimizga ikkinchi umr bag'ishlaganlar. Go'zal folkloristik majmua yaratib, unga "Oshiq G'arib", "Oshiq Alband", "Oshiq Miskin" kabi dostonlarni jam qilib, Xorazm mintaqasida mazkur dostonlarning muxislari "Go'ro'g'li" dostonlari muxislariidan kam emasligining isboti sifatida va muxislarga mazkur to'plam tuhfa qilindi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Xorazm vohasida "Oshiq G'arib" dostonining qo'shiqlaridan bir-ikkitasini yod bilmagan, qo'shiq qilib aytmagan keksa avlod vakillarini ucratish qiyin. Afsuski, keyingi asrda mafkuraviy tazyiq asosida arab alifbosidagi qo'lyozm kitoblar eskilik sarqiti sifatida taqiqlandi. bunday kitoblarni savodxon xalfalar faqat tor doiralardagina o'qib, targ'ib qilib kelishdi. Shu sababli bunday bebaho kitoblar sahifasiga bitilgan dostonlarimizdan keyingi avlod bebhra qoldi. Ushbu dostonlarni nashrga tayyorlash ma'naviy qadriyatlarimizni qayta tiklab, xalqimizning ma'naviy mulkiga aylantirish demakdir.

" ... ushbu qo'lyozma kitoblardan vohadagi o'zbek, turkman, qoraqalpoq baxshi va qissaxonlari birgalikda foydalanib, ulardan ma'naviy oziq olib kelishgan. Hatto arab alifbosida bitilgan bitta nusxani uch millat vakili bemalol o'qiy olishgan. Bu holat xalqlar o'rtasidagi do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirishga katta yordam bergan. Xullas, ushbu dostonlarni nashrga tayyorlash mashaqqatidan cho'chimay, matnlarni qayta tiklab, hozirgi o'quvchiga taqdim qilish milliy istiqlolimiz bergan imkoniyatning yana bir sharofatidir".

[A.Sa'dullayev,UrDU rektori, professor O'zR FA akademigi."Oshiqnoma".
2-kitob.– Urganch:"Xorazm".–2006.–B.452.]

Professor Safarboy Ro'zimboyev o'zining "G'aribniyoz – do'stlik kuychisi" maqolasida Xorazm vohasida XIX asr o'rtalarida yashab ijod etgan baxshi G'aribniyoz haqida ma'lumot berib,uning shogirdi turkman baxshisi Suyan (suyanch, tayanch) haqida so'z yuritadi. Bu baxshi haqida folklorshunos olim

A.N. Samoylovichning bergan ma'lumotlarini keltirib o'tadi: "Suyav baxshi Toshhovuz viloyati, hozirgi "Bo'ldimsoz" tumanida yashagan. U

faqatgina turkman tilida emas, o'zbek va qoraqalpoq tillarida ham doston kuylagan". Folklorshunos olim A.N. Samoylovich Xorazm vohasiga 1908-yilarda tadqiqot uyushtirgan paytda Suyav baxshi 58 yoshda bo'lganligi haqida ma'lumot keltiradi. Folklorshunos olim, professor Safarboy Ro'zimboyev tadqiqotchi-folklorshunos olim A.N. Samoylovichning ma'lumotlariga asoslanib, Suyav baxshi 1850- yilda tavallud topganligiga aniqlik kiritadi.

Suyav baxshi repertuaridagi doston va termalar turkman, o'zbek, qoraqalpoq baxshilari ijodida hozirgacha saqlanib kelayotgani to'g'risida ma'lumotlar keltiradi tadqiqotchi S.Ro'zimboyev. ["Xorazm folklori" X tom Urganch –2008, 3-bet.]

Suyav baxshi Toshhovuz viloyatidagi Porsi dostonchilik maktabi asoschilaridan bo'lgan. Gurlanlik Sakrak baxshi va mang'itlik Tursun baxshi Porsi dostonchilik maktabining so'nggi vakillaridan ekanligi haqida ma'lumot beradi.. Suyav baxshi repertuarida "Eshvoy" qo'shig'i alohida o'rin tutgan. Mazkur qo'shiq XVIII asrda Porsi atroflarida yashagan o'zbek baxshisi Eshboy baxshiga bag'ishlangan va unda baxshining yuksak insoniy fazilatlari aks etgan:

Eshboy Otash, Nurjon bilan soz etdi,
Besh kunlik umrini sarafroz etdi.
O'lgandan so'ng vasfin G'aribniyoz aytdi,
Soz – so'z bilan umri o'tdi Eshboyni.

Porsi baxshisi ijro etgan Eshboy qo'shig'i tarixi xususida qoraqalpoq folklorshunosi professor Q.Ayimbetov 1968-yil Nukusda bosilgan "Xalq donoligi" kitobida Suyav baxshidan burun Eshboy, Otash, G'aribniyoz kabi taniqli baxshilar yashab ijod etganliklari haqida ma'lumotlarni keltirganidan bilib olishimiz mumkin.

Professor S.Ro'zimboyev "Garibniyoz – do'stlik kuychisi" maqolasida

Eshboy baxshi, G'aribniyoz baxshi, Suyav baxshilar – o'zaro ustoz – shogirdlar zanjirini tarixy-ilmiy jihatdan asoslaydi.

"Eshboy" qo'shig'i asrlar osha hozirgacha yetib kelganligi, ya'ni qo'shiqning uzoq tarixi haqida 1963-yilda Ashxobodda nashr etilgan "Marjon donalar" va Nukusda bosilgan "Qoraqalpoq xalq qo'shiqlari" kitobiga ham kiritilganligi fikrimizning yaqqol dalilidir. O'zaro qardosh xalqlar madaniyatiga singib ketgan bunday qo'shiqlardan juda ko'plab topishimiz mumkin. Xalq baxshilarining hayoti, ijodi misolida folklor san'ati faqat ezgulik ulashishi, millatlarni birodarlikka undovchi go'zal ma'naviy tug' ekanligini anglaymiz. Bu esa folklor namunalarning qadr-qimmatini yana-da oshiradi.

O'zbek, turkman, qoraqalpoq xalqlari orasidagi o'zaro sodda samimiy, xalqona, do'stona, adabiy-madaniy aloqalar haqidagi ma'lumotlarni asoslab, folklorshunoslik xazinasiga qimmatli ma'lumotlar bilan hissa qo'shgan. Doston kuylash va baxshilarning xalqlar o'rtasidagi ma'naviy taraqqiyot va birodarlikka undovchi kuchdir. Bunday ma'naviy qudrat hozirda tengsiz badiiy asarlarga ham ko'chganki, badiiy asarlarning aksariyatida folklor unsurlari asarga yorqin pafos baxsh etib kelmoqda.

Folklorshunos olimning tadqiqotlari davomida eposlarga oid qaydlaridan namunalar keltirishni joiz deb topdim:

Xorazmda musiqa qadimdan taraqqiy qilgan. Bu holat epos

ijrochilariga ta'sir etmasdan qolmagan. Baxshilar qo'biz ishlatishni xorazmshohlar davridayoq to'xtalib, dutor ijrosiga o'tishgan. Bulamon, g'ijjak, doira dutorga jo'r bo'lishgan. Rubob Bola baxshi tomonidan 1928 yilda doston ijrosiga olib

kirilgan. Garmon tarixi Yangiariqning Oqmachit mahallasida yashagan nemislar

bilan aloqador bo'lib, ular 1890-yillarda Rossiyadan bayanni, keyinchalik ozarbayjon va tatarlar vohaga sal bo'lsa-da rekonstruksiya qilingan soz – garmonni olib kelishgan. 1900 yilda uni ilk bora Onajon xalfa ishlatgan. Shu tariqa garmonni baxshilar va xalfalar doston ijrosiga olib kirganlar.

* * *

Epos xalq etnografiyasi bilan chambarchas bog'liq. Unda xalqning muomala madaniyati, kiyinishi, uy jihozlari, bezaklar, asbob – uskunalar, ovqatliklar, dehqonchilik va chorvachilikka oid masalalar, urf – odatlar, marosimlar, olqish va qarg'ishlar o'zining yorqin ifodasini topgan.

* * *

Doston xalq ma'naviyatining yuksak cho'qqisidir.

* * *

Epos xalq tafakkurining gultojidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2017-yil

24-maydagi PQ-2925-sonli "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // "Xalq so'zi" gazetasi – Toshkent, 2017-yil, 25-may.

2."Go'ro'g'li " Xorazm dostonlari (nashrga tayyorlovchi S.Ro'zimboyev) – Urganch "Xorazm" nashriyoti, 2004. . - 480 bet.

3. Jumaboy Yusupov, filologiya fanlari doktori. "Oshiqnoma". 2-kitob. – Urganch: "Xorazm". – 2006. – B. 452. 451-bet.
4. Mirzayev T. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2014, №6, 102-bet.
5. Mirzayev T. **"Xorazm folklorining yirik tadqiqotchisi"** O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari» / To'plam / Urganch Davlat univrsiteti. – Urganch: «Xorazm yoshlari», 2022. – 376 b.
6. "Oshiqnoma". 1-kitob. – Urganch: "Xorazm". – 2006. – B. 350.
7. "Oshiqnoma". 2-kitob. – Urganch: "Xorazm". – 2006. – B. 454.
8. Qobulniyozov J. "O'zbek folklorining rivojlanish yo'llari" Toshkent. – "Fan" – 1969., 364 b.
9. Ro'zimboyev S.R. "Saylanma" – Urganch. – 2012. – 265 b.
10. S.R. Rozimboyev "Shalola" Urganch davlat universiteti filologik tadqiqotlar markazi – Urganch – 2022. – 289 b.
11. Ro'zimboyev S.R., Sabirova N.E. "Xorazm baxshichilik an'analari" / Uslubiy qo'llanma / "Xorazm yoshlari" – Urganch., 2020 – 230 b.
12. Sabirova N. "Xorazm dostonchilik maktablarining lokal xususiyatlari" / "3RD International Azerbaijan Congress on Humanities and social sciences" / November 26-28, 2022. – Congress proceedings book ISBN: 978- 605-72169-1-5
13. Turdimov Sh. "Davrimizning yirik go'ro'g'lishunosi edi..." / "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari» / To'plam / Urganch Davlat universiteti. – Urganch: «Xorazm yoshlari», 2022. – 376 – 7-bet.
14. "Xorazm folklori" X tom Urganch – 2008.
15. "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari" [To'plam / Urganch Davlat univrsiteti. - Urganch: «Xorazm yoshlari», 2022. – 376 b.
16. A. Sa'dullayev, UrDU rektori, professor O'zR FA akademigi. "Oshiqnoma". 2-kitob. – Urganch: "Xorazm". – 2006. – B. 452.